V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

MAMAJONOV SANJARBEK MIRZAYEVICH

TO‘RTINCHI TARTIBLI KARRALI XARAKTERISTIKALI VA PARABOLO-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 517.956

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
To‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali va parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar …….....3

Мамажонов Санжарбек Мирзаевич
Краевые задачи для уравнений четвертого порядка с кратными характеристиками и параболо-гиперболического типа.....19

Mamajonov Sanjarbek Mirzayevich
Boundary Value Problems for Fourth-Order Equations with Multiple Characteristics and Parabolic-Hyperbolic Type.....35

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 39

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

MAMAJONOV SANJARBEK MIRZAYEVICH

TO‘RTINCHI TARTIBLI KARRALI XARAKTERISTIKALI VA PARABOLO-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMALAR UCHUN CHEGARAVIY MASALALAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/FM865 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://kengash.mathinst.uz/) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Apakov Yusupjon Pulatovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Taxirov Jozil Ostanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Karimov Kamoliddin Tuychiboyevich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “06” fevral soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, website: www.mathinst.uz, e-mail: kengash@mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (176-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “19” yanvar kuni tarqatildi.
(2024 yil “19” yanvardagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xususiy hosilali differensial tenglamalar ko‘plab matematik va ilmiy yutuqlarning asosini tashkil etadi. XX asrda asosiy tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, ayrim yuqori tartibli va aralash tipdagi tenglamalarni tahlil qilish hali boshlang‘ich bosqichda. Amaliy masalalarda yuzaga keladigan bu tenglamalarning ko‘pchiligi asosiy turlarga mansub bo‘lmay, xususiy hosilali differensial tenglamalarning turlari chegaralarida yotadi yoki tur chegarasidan tashqariga chiqib, aralash tipga tegishli bo‘ladi.

Tenglama turini samarali aniqlash va uni kanonik shaklga keltirish chegaraviy masalalarni to‘g‘ri qo‘yish va o‘rganish imkonini beradi. Biroq to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun korrekt chegaraviy masalalar qo‘yish va yechishning analitik usullarini qurish bilan bog‘liq ko‘plab savollar o‘rganilmay qoldi. O‘z navbatida, amalda ushbu tenglamalar uchun masalalarni, shuningdek, to‘rtinchi tartibli elliptik, parabolik va giperbolik tenglamalarning turli sohalarda mumkin bo‘lgan kombinatsiyalarini zamonaviy xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasining dolzarb muammolaridan biri sifatida o‘rganish zarurati tug‘iladi. Aynan shu sabablar ushbu sohada jadal izlanishlarga turtki bo‘ldi.

Mamlakatimizda fundamental va amaliy fanlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda fan oldida fundamental tadqiqotlarni amaliyotga yaqinlashtirish vazifasi turibdi. Ushbu masalalarni amalga oshirishda karrali xarakteristikali va parabolo-giperbolik tipdagi to‘rtinchi tartibli tenglamalar alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun mazkur dissertatsiya yuqorida qayd etilgan dolzarb masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Matematika institutining asosiy faoliyati va vazifalari matematikaning ustuvor yo‘nalishlari, ya’ni matematik va funksional tahlil, differensial tenglamalar va matematik fizika, jumladan, dinamik tizimlar nazariyasi, amaliy matematika va matematik modellashtirish bo‘yicha jahon andozalari darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borishdan iborat.[1]

Ushbu dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot obyekti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ- 2909- son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-4387-son qarori.

chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga mos keladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirildi.

Masalaning o‘rganilganlik darajasi. 50-yillarda Frankl F.I., Bitsadze A.B. va Babenko K.I. larning maqolalarida aralash va qo‘shma tipdagi tenglamalarning zamonaviy nazariyasiga asos solindi. Keyinchalik bu chegaraviy masalalar mamlakatimizda ham, xorijda ham ko‘plab mualliflar tomonidan o‘rganildi. Bu ishlarning asosiy natijalari va tegishli bibliografiyasi Bitsadze A.B., Smirnov M.M., Salahitdinov M.S. va Djurayev T.D. larning kitoblarida keltirilgan. Ma’lumki, geofizika, atmosfera fizikasi, okeanologiya va bir jinsli bo‘lmagan suyuqliklar dinamikasi, xususan, qatlamli suyuqliklar dinamikasini o‘rganish to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishga keltiriladi (qarang, masalan, Gabov S.A. va Sveshnikov A.G. ning monografiyasi, 1986). Jo‘rayev T.D. va Sopuyev A. larning monografiyasi (FAN nashriyoti, 2000 yil) to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarni turlarga ajratish va ular uchun ayrim chegaraviy masalalarni yechishga bag‘ishlangan. Shuning uchun, tabiiyki, “kun tartibida” to‘rtinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar va aralash tenglamalar nazariyasini ishlab chiqish masalasi paydo bo‘ldi.

Sabitov K.B. va Fadeyev O.V. lar konsolli balkaning majburiy tebranishlari uchun boshlang‘ich va chegaraviy masalani hal qilishdi. Amanov D. va Murzambetova M.B. karrali xarakteristikali bitta kichik hadga ega bo‘lgan to‘rtinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun chegaraviy masalani ko‘rib chiqishdi. Irgashev B.Yu. Grin funksiyasi qurish orqali yuqori tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun chegaraviy masalani o‘rgandi. O‘rinov A.K. va Azizov M.S. tomonidan o‘ng tomoni noma’lum bo‘lgan to‘rtinchi tartibli tenglama uchun masala o‘rganildi. Bogatov A.V. va Gilev A.V. hamda Pulkina L.S. to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglama uchun nolokal shartli masalani hal qilishdi. Khan A. va Sultana T. to‘rtinchi tartibli parabolik tipdagi xususiy hosilali differensial tenglama bilan ifodalangan uzluksiz tashqi kuch ta’sirida balkaning ko‘ndalang tebranishi haqidagi masalani raqamli usulda yechishdi.

Parabolo-giperbolik tipdagi uchinchi va yuqori tartibli tenglamalar uchun chegaraviy masalalar birinchi marta Jo‘rayev T.D. hamda uning shogirdlari tomonidan qo‘yilgan va o‘rganilgan. So‘nggi paytlarda uchinchi va yuqori tartibli parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o‘rganish keng rivojlandi. Masalan, kasr tartibli hosilali tenglamalar nazariyasi jadal rivojlanmoqda. Yechimlarni qurish, ularning xossalarini va chegaraviy masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan aralash parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalarni tadqiq qilish bo‘yicha dastlabki natijalar Gelfand I.M. ning ishlarida olingan. Keyinchalik ular Struchina G.M., Uflyand Ya.F., Zolina L.A. va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Bosh qismida parabolo-giperbolik va elliptiko-parabolik operatorlarni o‘z ichiga olgan uchinchi va undan yuqori tartibli qo‘shma va aralash-

qo‘shma tipdagi tenglamalarni o‘rganish Salohiddinov M.S., Jo‘rayev T.D., Yeleyev V.A., Mamajonov M. va Xolmurodov D., Zikirov O.S., Sabitov K.B. va boshqalarlarning ishlarida jadal rivojlandi. Ko‘rib chiqilgan tenglamalarning asosiy tarkiblari yangi usul va yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Mavjud usullar esa energiyani baholash, funksional-analitik va boshqa usullar kabi tenglamalarning kengroq sinflari uchun qo‘llaniladigan yanada kuchli yondashuvlarga aylantirilishi kerak. Shuning uchun ushbu dissertatsiya o‘zgarmas va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli kichik hadlarga ega bo‘lgan to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar va parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Matematika institutida “Differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari” laboratoriyasining rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot mavzusiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zgarmas va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli kichik hadlarga ega bo‘lgan to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar va parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali o‘zgarmas va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli bir jinsli bo‘lmagan tenglamalar uchun yangi korrekt chegaraviy masalalar qo‘yish va asoslash;

qo‘yilgan masalalarning bir qiymatli yechilishi uchun koeffitsiyentlarga yetarli shartlarni aniqlash va bu shartlar buzilganda bir jinsli masalaning notrivial yechimga ega bo‘lishiga misollar ko‘rsatish;

chegaraviy masalalarning yechimlarini oshkor ko‘rinishda tuzilgan Grin funksiyalari va Furye qatorlari usullari yordamida qurish;

ikki perpendikulyar tur o‘zgarish chizig‘iga ega bo‘lgan sohada parabolo-giperbolik tipdagi to‘rtinchi tartibli tenglama uchun birinchi tartibli operatorlari burchak koeffitsiyentlarining qiymatlari asosida yangi chegaraviy masalalar qo‘yish va tadqiq qilish.

Tadqiqotning obyekti to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali va parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalardan iborat.

Tadqiqotning predmeti to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar uchun, shuningdek, to‘rtinchi tartibli parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida matematik analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika, chiziqli algebra, operatorlar va qatorlarning spektral nazariyasi usullari qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali o‘zgarmas va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli bir jinsli bo‘lmagan tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarning korrektligi asoslangan;

qo‘yilgan masalalarning bir qiymatli yechilishi uchun koeffitsiyentlarga yetarli shartlarni aniqlangan va bu shartlar buzilganda bir jinsli masalaning notrivial yechimga ega bo‘lishiga misollar ko‘rsatilgan;

chegaraviy masalalarning yechimlari oshkor ko‘rinishda tuzilgan Grin funksiyalari va Furye qatorlari usullari yordamida qurilgan;

ikki perpendikulyar tur o‘zgarish chizig‘iga ega bo‘lgan sohada parabolo-giperbolik tipdagi to‘rtinchi tartibli tenglama uchun birinchi tartibli operatorlari burchak koeffitsiyentlarining qiymatlari asosida chegaraviy masalalarni bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari fizik jarayonlarning sifat xususiyatlarini o‘rganishda va sonli hisob-kitoblarda analitik yechimlardan foydalanish imkoniyatini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik va funksional analiz usullari, differensial tenglamalar va matematik fizika yordamida asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalarni to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali tenglamalar, shuningdek, to‘rtinchi tartibli parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar yordamida tasvirlangan fizik jarayonlarni o‘rganishda qo‘llash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etish. To‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali va parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarda olingan natijalar asosida:

to‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali o‘zgarmas koeffitsiyentli bir jinsli bo‘lmagan tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishidan AP08855810 raqamli “Nolokal xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy va boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechilishi masalalari” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida to‘rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalarni yechishda qo‘llanilgan. (Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro Qozoq-Turk universitetining 2023 yil 22-sentabrdagi №05/3407-sonli ma’lumotnomasi, Qozog‘iston). Ilmiy natijani qo‘llanishi Grin funksiyasi yordamida to‘rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalaning aniq yechimini qurish imkonini bergan;

Grin funksiyasi yordamida o‘zgaruvchan koeffitsiyentli to‘rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar yechimini qurish usulidan 374874-2020 raqamli “Fazaviy o‘tishlar va kritik hodisalar masalalari. Ularning tenglamalarining matematik jihatlari, tez o‘tishlar va asimptotikalar” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida yuqori tartibli tenglama uchun masalalar yechimini qurishda foydalanilgan (O‘sh davlat universitetining 2023 yil 16-oktabrdagi №1179-sonli ma’lumotnomasi, Qirg‘iziston). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi yuqori tartibli tenglamalar uchun to‘g‘ri to‘rtburchakli sohada berilgan chegaraviy masalalarning yechimlari aniq ko‘rinishini topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning natijalari 13 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining chop etilganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 27 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shu jumladan, 11 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi uchun tavsiya etilgan 5 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning hajmi 114 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalarining rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlarning sharhlari, muammolarning o‘rganilganlik darajalari, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti hamda predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘rtinchi tartibli o‘zgarmas koeffitsiyentli tenglama uchun chegaraviy masalalar”** deb nomlangan **birinchi bobida** to‘rtinchi tartibli o‘zgarmas koeffitsiyentli kichik hadlarga ega bo‘lgan karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun chegaraviy masalalar qo‘yilgan, yechimning yagonaligi isbotlangan va yechimni oshkor ko‘rinishda qurilgan Grin funksiyasi yordamida yozilgan.

$\Omega = \{(x,y): 0 < x < p, 0 < y < q\}$ sohada to‘rtinchi tartibli

$$L[u] \equiv u_{xxxx} + a_1 u_{xx} + a_2 u_x + a_3 u - u_{yy} = f(x,y), \tag{1}$$

tenglamani qaraymiz. Bu yerda

$$p, q, a_i \in R, \quad i = \overline{1,3}, \quad f_{xyy}(x,y) \in C(\bar{\Omega}).$$

Birinchi bobning birinchi paragrafida quyidagi chegaraviy masalalar qo‘yilgan va ularning yagona yechimga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

A_1 **masala.** Shunday $u(x,y)$ funksiya topilsinki,

$$C_{x,y}^{4,2}(\Omega) \cap C_{x,y}^{3,1}(\bar{\Omega}), \tag{2}$$

sinfga tegishli bo‘lsin, Ω sohada (1) tenglamani hamda

$$\left.\frac{\partial^m u}{\partial x^m}\right|_{x=0} = \psi_{m+1}(y), \quad \left.\frac{\partial^m u}{\partial x^m}\right|_{x=p} = \psi_{m+2}(y), \quad m = 0,2, \quad 0 \le y \le q; \tag{3}$$

$$u(x,0) = 0, \quad u(x,q) = 0, \quad 0 \le x \le p, \tag{4}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin. Bu yerda $\psi_i(y)$, $i = \overline{1,4}$ – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

A_2 **masala.** Shunday (2) sinfga tegishli bo‘lgan $u(x,y)$ funksiya topilsinki, Ω sohada (1) tenglamani hamda (3) va

$$u_y(x,0)=0,\quad u_y(x,q)=0,\quad 0\le x\le p, \tag{5}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin.

A_3 **masala.** Shunday (2) sinfga tegishli bo‘lgan $u(x,y)$ funksiya topilsinki, Ω sohada (1) tenglamani hamda (3) va

$$\alpha u(x,0)+\beta u_y(x,0)=0,\quad \gamma u(x,q)+\delta u_y(x,q)=0,\quad 0\le x\le p, \tag{6}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin. Bu yerda $\alpha,\beta,\gamma,\delta\in R\setminus\{0\}$.

1-teorema. Agar A_1 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $a_1\le 0$ va $a_3\ge 0$ shartlar bajarilsa, bu yechim yagona.

2-teorema. Agar A_2 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $a_1\le 0$ va $a_3\ge 0$ shartlar bajarilsa bu yechim yagona.

3-teorema. Agar A_3 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $a_1\le 0$, $a_3\ge 0$, $\alpha\beta<0$ va $\gamma\delta>0$ shartlar bajarilsa, bu yechim yagona.

1, 2, 3 – teoremalar energiya integrallari usuli yordamida isbotlangan.

1-izoh. Agar 1-teorema shartlari buzilsa, bir jinsli (1) tenglama uchun bir jinsli A_1 masala notrivial yechimga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, agar $a_1=\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2$, $a_2=0$, $a_3=-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2$ bo‘lsa, ushbu

$$\begin{cases} u_{xxxx}(x,y)+\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2 u_{xx}(x,y)-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2 u(x,y)-u_{yy}=0,\\ u(x,0)=u(x,q)=0,\quad u(0,y)=u(p,y)=u_{xx}(0,y)=u_{xx}(p,y)=0, \end{cases}$$

bir jinsli masala $u_{k,n}=\sin\left(\frac{\pi k}{p}x\right)\sin\left(\frac{\pi n}{q}y\right)$, $k,n\in N$ ko‘rinishdagi notrivial yechimlarga ega bo‘ladi.

Bu yerdan kelib chiqadiki, agar a_3 ajratish parametri bo‘lsa, u holda $a_3\ge 0$ da masala korrekt qo‘yilgan, $a_3<0$ da masala korrekt emas, ya’ni spektr mavjud.

2-izoh. Agar 2-teorema shartlari buzilsa, bir jinsli (1) tenglama uchun bir jinsli A_2 masala notrivial yechimga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, agar $a_1=\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2$, $a_2=0$, $a_3=-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2$ bo‘lsa, ushbu

$$\begin{cases} u_{xxxx}(x,y)+\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2 u_{xx}(x,y)-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2 u(x,y)-u_{yy}=0,\\ u_y(x,0)=u_y(x,q)=0,\quad u(0,y)=u(p,y)=u_{xx}(0,y)=u_{xx}(p,y)=0, \end{cases}$$

bir jinsli masala $u_{n,k}(x,y)=\sin\left(\frac{\pi k}{p}x\right)\cos\left(\frac{\pi n}{q}y\right),\quad k\in N,\quad n=0,1,2,...$ ko‘rinishdagi notrivial yechimlarga ega bo‘ladi.

3-izoh. Agar 3-teorema shartlari buzilsa, bir jinsli (1) tenglama uchun bir jinsli A_3 masala notrivial yechimga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, agar $a_1=\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2$, $a_2=0,\ a_3=-\lambda_n<0$ bo‘lsa, ushbu

$$\begin{cases} u_{xxxx}(x,y)+\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2 u_{xx}(x,y)-\lambda_n u(x,y)-u_{yy}=0,\\ \alpha u(x,0)+\beta u_y(x,0)=0,\quad \gamma u(x,q)+\delta u_y(x,q)=0,\\ u(0,y)=u(p,y)=u_{xx}(0,y)=u_{xx}(p,y)=0, \end{cases}$$

bir jinsli masala $u_{n,k}(x,y)=\sin\left(\frac{\pi k}{p}x\right)Y_n(y),\quad n,k\in N,$ ko‘rinishdagi notrivial yechimlarga ega bo‘ladi. Bu yerda λ_n hamda $Y_n(y)$

$$\begin{cases} Y''(y)+\lambda Y(y)=0,\\ \alpha Y(0)+\beta Y'(0)=\gamma Y(q)+\delta Y'(q)=0. \end{cases} \tag{7}$$

masalaning mos ravishda xos sonlari va xos funksiyalari.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida A_1 masala yechimining mavjudligi ko‘rsatilgan.

4-teorema. Agar ushbu

1) $D<\dfrac{\mu_1^3\left(1-e^{-2\mu_1 p}\right)^2}{p\left(2\mu_1^2+\mu_1\left(1+e^{-4\mu_1 p}\right)+1\right)}$;

2) $\psi_i^{(j)}(0)=\psi_i^{(j)}(q)=0$, $\psi_i(y)\in C^3[0,q]$, $i=\overline{1,4}$, $j=0,2$;

3) $f(x,0)=f(x,q)=0$, $0\le x\le p$,

shartlar bajarilsa, A_1 masalaning yechimi mavjud. Bu yerda

$$D=\max\left\{|a_i|, i=\overline{1,3}\right\},\qquad \mu_1=\sqrt{\frac{\pi}{2q}}.$$

Teorema o‘zgaruvchilarni ajratish usuli yordamida isbotlangan va yechim oshkor ko‘rinishda qurilgan Grin funksiyasi yordamida yozilgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida A_2 va A_3 masalalarning yechimlari qurilgan. Ushbu teoremalar isbotlangan:

5-teorema. Agar ushbu

1) $D<\min\left\{\dfrac{1}{2p^2\left(1+p+p^2\right)},\dfrac{\mu_1^3\left(1-e^{-2\mu_1 p}\right)^2}{p\left(2\mu_1^2+\mu_1\left(1+e^{-4\mu_1 p}\right)+1\right)}\right\}$;

2) $\psi_i'(0)=\psi_i'(q)=0$, $\psi_i(y)\in C^3[0,q]$, $i=\overline{1,4}$;

3) $f_y(x,0)=f_y(x,q)=0$, $0\le x\le p$;

shartlar bajarilsa, A_2 masalaning yechimi mavjud. Bu yerda $\mu_1=\sqrt{\dfrac{\pi}{2q}}$.

6-teorema. Agar ushbu

1) $D<\dfrac{\mu_1^3\left(1-e^{-2\mu_1 p}\right)^2}{p\left(2\mu_1^2+\mu_1\left(1+e^{-4\mu_1 p}\right)+1\right)}$;

2) $\alpha\psi_i^{(j)}(0)+\beta\psi_i^{(j+1)}(0)=0$, $\gamma\psi_i^{(j)}(q)+\delta\psi_i^{(j+1)}(q)=0$, $\psi_i(y)\in C^3[0,q]$, $i=\overline{1,4}$, $j=0,2$;

3) $\alpha f(x,0)+\beta f_y(x,0)=0$, $\gamma f(x,q)+\delta f_y(x,q)=0$, $0\le x\le p$,

shartlar bajarilsa, A_3 masalaning yechimi mavjud. Bu yerda $\mu_1=\sqrt[4]{\dfrac{\lambda_1}{4}}$, λ_1 – (7) masalaning birinchi xos soni.

Dissertatsiyaning **“To‘rtinchi tartibli o‘zgaruvchan koeffitsiyentli tenglama uchun chegaraviy masalalar”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** to‘rtinchi tartibli o‘zgaruvchan koeffitsiyentli kichik hadlarga ega bo‘lgan karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan tenglama uchun chegaraviy masalalar qo‘yilgan, yechimning yagonaligi isbotlangan va yechim yaqqol ko‘rinishda qurilgan Grin funksiyasi yordamida yozilgan.

Ω sohada to‘rtinchi tartibli ushbu

$$L[u]\equiv u_{xxxx}+a_1(x)u_{xx}+a_2(x)u_x+a_3(x)u-u_{yy}=f(x,y), \tag{8}$$

tenglamani qaraymiz. Bu yerda

$$a_1(x)\in C^2[0,p],\quad a_2(x),a_3(x)\in C^1[0,p],\quad f_{xyy}(x,y)\in C(\bar{\Omega}).$$

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida korrekt chegaraviy masalalar qo‘yilgan va ularning yagona yechimga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

B_1 **masala.** Shunday (2) sinfga tegishli bo‘lgan $u(x,y)$ funksiya topilsinki, Ω sohada (8) tenglamani hamda (4) va

$$\left.\frac{\partial^m u}{\partial x^m}\right|_{x=0}=\psi_m(y),\quad \left.\frac{\partial^m u}{\partial x^m}\right|_{x=p}=\psi_{m+1}(y),\quad m=1,3,\quad 0\le y\le q, \tag{9}$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin. Bu yerda $\psi_i(y)$, $i=\overline{1,4}$ – berilgan yetarlicha silliq funksiyalar.

B_2 **masala.** Shunday (2) sinfga tegishli bo‘lgan $u(x,y)$ funksiya topilsinki, Ω sohada (8) tenglamani hamda (5) va (9) chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin.

B_3 **masala.** Shunday (2) sinfga tegishli bo‘lgan $u(x,y)$ funksiya topilsinki, Ω sohada (8) tenglamani hamda (6) va (9) chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin.

7-teorema. Agar B_1 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $a_1'(0)-a_2(0)\ge 0$, $a_1'(p)-a_2(p)\le 0$, $a_1''(x)-a_2'(x)+2a_3(x)\ge 0$, $a_1(x)\le 0$ shartlar bajarilsa, bu yechim yagona.

8-teorema. Agar B_2 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $a_1(x)\le 0$, $a_3(x)>0$, $2a_3(x)+a_1''(x)-a_2'(x)\ge 0$, $a_1'(0)-a_2(0)\ge 0$, $a_1'(p)-a_2(p)\le 0$ shartlar bajarilsa, bu yechim yagona.

9-teorema. Agar B_3 masala yechimga ega bo‘lsa hamda $a_1(x)\le 0$, $2a_3(x)+a_1''(x)-a_2'(x)\ge 0$, $a_1'(0)-a_2(0)\ge 0$, $a_1'(p)-a_2(p)\le 0$, $\alpha\beta<0$, $\gamma\delta>0$ shartlar bajarilsa, bu yechim yagona.

7, 8 va 9 teoremalar energiya integrallari usuli yordamida isbotlangan.

4-izoh. Agar 7-teorema shartlari buzilsa, bir jinsli (8) tenglama uchun bir jinsli B_1 masala notrivial yechimga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, agar $a_1=\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2$, $a_2=0$, $a_3=-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2$ bo‘lsa, ushbu

$$\begin{cases} u_{xxxx}(x,y)+\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2 u_{xx}(x,y)-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2 u(x,y)-u_{yy}=0, \\ u(x,0)=u(x,q)=0, \quad u_x(0,y)=u_x(p,y)=u_{xxx}(0,y)=u_{xxx}(p,y)=0, \end{cases}$$

bir jinsli masala $u_{k,n}=\cos\left(\frac{\pi k}{p}x\right)\sin\left(\frac{\pi n}{q}y\right)$, $k=0,1,2,\ldots$, $n\in N$ ko‘rinishdagi notrivial yechimlarga ega bo‘ladi.

5-izoh. Agar 8-teorema shartlari buzilsa, bir jinsli (8) tenglama uchun bir jinsli B_2 masala notrivial yechimga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, agar $a_1=\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2$, $a_2=0$, $a_3=-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2$ bo‘lsa, ushbu

$$\begin{cases} u_{xxxx}(x,y)+\left(\frac{\pi k}{p}\right)^2 u_{xx}(x,y)-\left(\frac{\pi n}{q}\right)^2 u(x,y)-u_{yy}=0, \\ u_y(x,0)=u_y(x,q)=0, \quad u_x(0,y)=u_x(p,y)=u_{xxx}(0,y)=u_{xxx}(p,y)=0, \end{cases}$$

bir jinsli masala $u_{k,n}=\cos\left(\frac{\pi k}{p}x\right)\cos\left(\frac{\pi n}{q}y\right)$, $k,n=0,1,2,\ldots$ ko‘rinishdagi notrivial yechimlarga ega bo‘ladi.

6-izoh. Agar 9-teorema shartlari buzilsa, bir jinsli (8) tenglama uchun bir jinsli B_3 masala notrivial yechimga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, agar $a_1 = \left(\frac{\pi k}{p}\right)^2$, $a_2 = 0,\ a_3 = -\lambda_n < 0$ bo‘lsa, ushbu

$$\begin{cases} u_{xxxx}(x,y) + \left(\frac{\pi k}{p}\right)^2 u_{xx}(x,y) - \lambda_n u(x,y) - u_{yy} = 0, \\ \alpha u(x,0) + \beta u_y(x,0) = 0, \quad \gamma u(x,q) + \delta u_y(x,q) = 0, \\ u_x(0,y) = u_x(p,y) = u_{xxx}(0,y) = u_{xxx}(p,y) = 0, \end{cases}$$

bir jinsli masala $u_{n,k}(x,y) = \cos\left(\frac{\pi k}{p}x\right) Y_n(y),\ \ n,k \in N,$ ko‘rinishdagi notrivial yechimlarga ega bo‘ladi. Bu yerda λ_n hamda $Y_n(y)$ lar (7) masalaning mos ravishda xos sonlari va xos funksiyalari.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida B_1 masala yechimining mavjudligi ko‘rsatilgan.

10-teorema. Agar ushbu

1) $a_1'(0) - a_2(0) = 0,\ a_1'(p) - a_2(p) = 0;$

2) $D < \dfrac{\mu_1^3\left(1 - e^{-2\mu_1 p}\right)^2}{p\left(3 + 3\mu_1\left(1 + e^{-4\mu_1 p}\right) + 2\mu_1^2\right)};$

3) $\psi_i^{(j)}(0) = \psi_i^{(j)}(q) = 0,\ \psi_i(y) \in C^3[0,q],\ i = \overline{1,4},\ j = 0,2;$

4) $f(x,0) = f(x,q) = 0,\ 0 \le x \le p$ shartlar bajarilsa, B_1 masalaning yechimi mavjud. Bu yerda

$$D = \max_{\xi \in [0,p]} \left\{ \left|a_i^{(j)}(\xi)\right|, \left|a_1''(\xi)\right|,\ i = \overline{1,3},\ j = 0,1 \right\}, \qquad \mu_1 = \sqrt{\frac{\pi}{2q}}.$$

Teorema o‘zgaruvchilarni ajratish usuli yordamida isbotlangan va yechim oshkor topilgan Grin funksiyasi yordamida yozilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida B_2 va B_3 masalalarning yechimlari qurilgan. Ushbu teoremalar isbotlangan:

11-teorema. Agar ushbu

1) $a_1'(0) - a_2(0) = 0,\ a_1'(p) - a_2(p) = 0;$

2) $D < \dfrac{\mu_1^3\left(1 - e^{-2\mu_1 p}\right)^2}{p\left(3 + 3\mu_1\left(1 + e^{-4\mu_1 p}\right) + 2\mu_1^2\right)};$

3) $\psi_i'(0) = \psi_i'(q) = 0,\ \psi_i(y) \in C^3[0,q],\ i = \overline{1,4};$

4) $f_y(x,0)=f_y(x,q)=0$, $0\le x\le p$ shartlar bajarilsa, B_2 masalaning yechimi mavjud. Bu yerda $\mu_1=\sqrt{\dfrac{\pi}{2q}}$.

12-teorema. Agar ushbu

1) $a_1'(0)-a_2(0)=0$, $a_1'(p)-a_2(p)=0$;

2) $D<\dfrac{\mu_1^3\left(1-e^{-2\mu_1 p}\right)^2}{p\left(2\mu_1^2+3\mu_1\left(1+e^{-4\mu_1 p}\right)+3\right)}$;

3) $\alpha\psi_i^{(j)}(0)+\beta\psi_i^{(j+1)}(0)=0$, $\gamma\psi_i^{(j)}(q)+\delta\psi_i^{(j+1)}(q)=0$, $\psi_i(y)\in C^4[0,q]$, $i=\overline{1,4}$, $j=0,2$;

4) $\alpha f(x,0)+\beta f_y(x,0)=0$, $\gamma f(x,q)+\delta f_y(x,q)=0$, $0\le x\le p$ shartlar bajarilsa, B_3 masalaning yechimi mavjud. Bu yerda $\mu_1=\sqrt[4]{\dfrac{\lambda_1}{4}}$, λ_1 – (7) masalaning birinchi xos soni.

Dissertatsiyaning **“Ikki perpendikulyar tur o‘zgarish chizig‘iga ega bo‘lgan sohada to‘rtinchi tartibli** $\left(a_1\dfrac{\partial}{\partial x}+b_1\dfrac{\partial}{\partial y}\right)\left(a_2\dfrac{\partial}{\partial x}+b_2\dfrac{\partial}{\partial y}\right)(Lu)=0$ **ko‘rinishdagi tenglama uchun chegaraviy masalalar”** deb nomlangan uchinchi bobida yangi chegaraviy masalalar qo‘yilgan va ularning bir qiymatli yechilishi ikkita xarakteristik va xarakteristik bo‘lmagan perpendikulyar tur o‘zgarish chizig‘iga ega bo‘lgan aralash besh burchakli sohadagi parabolo-giperbolik tipdagi to‘rtinchi tartibli tenglamalarning bir sinfi uchun isbotlangan.

$$\left(a_1\frac{\partial}{\partial x}+b_1\frac{\partial}{\partial y}\right)\left(a_2\frac{\partial}{\partial x}+b_2\frac{\partial}{\partial y}\right)(Lu)=0, \tag{10}$$

tenglamani xOy tekislikning G beshburchakli sohasida qaraymiz. Bu yerda $G=G_1\cup G_2\cup G_3\cup J_1\cup J_2$; $a_1,b_1,a_2,b_2\in R$, $a_i^2+b_i^2\ne 0$, $i=1,2$ bo‘lib, G_1 va G_3 lar mos ravishda $A(0;0)$, $B(1;0)$, $B_0(1,1)$, $A_0(0,1)$ hamda A, $D(-1,0)$, $D_0(-1,1)$, A_0 nuqtalardagi uchlarga ega bo‘lgan kvadratlar; G_2 esa B, $C(0,-1)$, D nuqtalardagi uchlarga ega bo‘lgan uchburchak; J_1 va J_2 lar mos ravishda B, D hamda A, A_0 nuqtalardagi uchlarga ega bo‘lgan ochiq kesmalar;

$$Lu=\begin{cases}u_{xx}-u_y, & (x,y)\in G_1,\\ u_{xx}-u_{yy}, & (x,y)\in G_i,\ i=2,3.\end{cases}$$

Uchinchi bobning birinchi paragrafida (10) tenglamaning birinchi tartibli operatorlari burchak koeffitsiyentlari $\gamma_1=\dfrac{b_1}{a_1}$ va $\gamma_2=\dfrac{b_2}{a_2}$ ning qiymatlari asosida quyidagi korrekt chegaraviy masalalar qo‘yilgan.

3.1 masala. Quyidagi shartlarni bajaruvchi $u(x,y)$ funksiya topilsin:

1) $\overline{G}$ da uzluksiz va $G \setminus J_1 \setminus J_2$ sohada (10) tenglamada qatnashuvchi uzluksiz hosilalarga ega hamda u_x, u_y, u_{xx}, u_{xy}, u_{yy} lar chegaraviy shartlarda ko‘rsatilgan G soha chegarasining bir qismigacha uzluksiz;

2) $G \setminus J_1 \setminus J_2$ sohada (10) tenglamani qanoatlantiradi;

3) chegaraviy shartlar hamda tur o‘zgarish chizig‘idagi ulash shartlarini qanoatlantiradi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida $b_1 = b_2 = 0$, ya’ni $\gamma_1 = \gamma_2 = 0$ bo‘lganda (10) tenglama

$$\frac{\partial^2}{\partial x^2}(Lu) = 0,$$

ko‘rinishga keladi. Uni ikki marta integrallab,

$$\begin{cases} u_{1xx} - u_{1y} = \omega_{11}(y)x + \omega_{12}(y), & (x,y) \in G_1, \\ u_{ixx} - u_{iyy} = \omega_{i1}(y)x + \omega_{i2}(y), & (x,y) \in G_i, \quad i = 2,3, \end{cases}$$

ni hosil qilamiz.

G_2 xarakteristik uchburchakda ikkinchi tartibli giperbolik tenglamaning o‘ng tomonida joylashgan noma’lum funksiyani chegaraviy shartlardan foydalanib topiladi va $y = 0$ tur o‘zgarish chizig‘ida yechimning ikkita izi o‘rtasida ikkita munosabat olinadi hamda pastki xarakteristik uchburchakda qo‘yilgan masalaning yechimi topiladi.

G_3 sohada davom ettirish usulidan foydalanib, $x = 0$ tur o‘zgarish chizig‘ida yechimning ikkita izi o‘rtasida bitta munosabat olindi.

G_1 sohada parabolik tenglama uchun birinchi chegaraviy masala yechimini yozib, shu yechim izlari orasida ikkinchi munosabat olinadi va noma’lum funksiyaga nisbatan ikkinchi turdagi Volter integral tenglamasi hosil qilinadi, undan izlangan funksiya aniqlanadi va 3.1 masalaning yechimi ham topildi.

Quyidagi teorema isbotlangan.

13-teorema. Agar $\varphi_1,\ \varphi_2 \in C^4[0,1]$, $\varphi_4 \in C^3[0,1]$, $\varphi_6 \in C^2[0,1]$, $\psi_1 \in C^4[0,1]$, $\psi_2 \in C^4[-1,-1/2]$, $\psi_4 \in C^3[0,1]$, $\psi_6 \in C^2[-1,0]$ bo‘lib, $\varphi_1(0) = \psi_1(1)$, $\varphi_2(0) = \psi_2(-1)$, $\tau_1(1) = \varphi_1(0)$, $\tau_1'(1) = \psi_1'(1) - \varphi_1'(0)$ kelishuv shartlari bajarilsa, 3.1 masala $\gamma_1 = \gamma_2 = 0$ bo‘lganda yagona yechimga ega.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida $\gamma_1 = 0$ va $1 < \gamma_2 < \infty$ bo‘lganda (10) tenglama

$$\frac{\partial}{\partial x}\left(a_2 \frac{\partial}{\partial x} + b_2 \frac{\partial}{\partial y}\right)(Lu) = 0,$$

yoki

$$\begin{cases} u_{1xx} - u_{1y} = \omega_{11}(b_2 x - a_2 y) + \omega_{12}(y), & (x,y) \in G_1, \\ u_{ixx} - u_{iyy} = \omega_{i1}(b_2 x - a_2 y) + \omega_{i2}(y), & (x,y) \in G_i, \quad i = 2,3, \end{cases}$$

ko‘rinishga keladi va quyidagi teorema isbotlangan:

14-teorema. Agar $\varphi_1,\ \varphi_2 \in C^4[0,1]$, $\varphi_4 \in C^2[0,1]$, $\psi_1 \in C^4[0,1]$, $\psi_2 \in C^4[-1,-1/2]$, $\psi_3 \in C^3[0,1]$, $\psi_4 \in C^3[-1,0]$, $\psi_6 \in C^2[-1,0]$ bo‘lib, $\varphi_1(0)=\psi_1(1)$, $\varphi_2(0)=\psi_2(-1)$, $\psi_4'(0)=-\psi_3'(0)$ kelishuv shartlari bajarilsa, 3.1 masala $\gamma_1=0$, $1<\gamma_2<\infty$ bo‘lganda yagona yechimga ega.

Uchinchi bobning to‘rtinchi paragrafida $\gamma_1=\infty$, $\gamma_2=1$ bo‘lganda tenglama

$$\frac{\partial}{\partial y}\left(\frac{\partial}{\partial x}+\frac{\partial}{\partial y}\right)(Lu)=0,$$

yoki

$$\begin{cases} u_{1xx}-u_{1y}=\omega_{11}(x-y)+\omega_{12}(x), & (x,y)\in G_1,\\ u_{jxx}-u_{jyy}=\omega_{j1}(x-y)+\omega_{j2}(x), & (x,y)\in G_j, \quad j=2,3, \end{cases}$$

ko‘rinishga keladi va quyidagi teorema isbotlangan:

15-teorema. Agar $\varphi_1,\varphi_2 \in C^4[0,1]$, $\varphi_4 \in C^3[0,1]$, $\psi_1 \in C^4[0,1/2]$, $\psi_2 \in C^4[-1,0]$, $\psi_3 \in C^3[0,1]$, $\psi_4 \in C^3[-1,0]$, $\psi_6 \in C^2[-1,0]$ bo‘lib, $\psi_1(0)=\psi_2(0)$, $\varphi_2(0)=\psi_2(-1)$, $\psi_4'(0)=-\psi_3'(0)$ kelishuv shartlari bajarilsa, 3.1 masala $\gamma_1=\infty$, $\gamma_2=1$ bo‘lganda yagona yechimga ega.

Uchinchi bobning beshinchi paragrafida $\gamma_1>1$, $\gamma_2>1$ bo‘lganda (10) tenglama

$$\left(a\frac{\partial}{\partial x}+b\frac{\partial}{\partial y}\right)^2(Lu)=0,$$

yoki

$$\begin{cases} u_{1xx}-u_{1y}=\omega_{11}(bx-ay)y+\omega_{12}(bx-ay), & (x,y)\in G_1,\\ u_{jxx}-u_{jyy}=\omega_{j1}(bx-ay)y+\omega_{j2}(bx-ay), & (x,y)\in G_j, \quad j=2,3, \end{cases}$$

ko‘rinishga keladi. Bu yerda $\left(a\frac{\partial}{\partial x}+b\frac{\partial}{\partial y}\right)$ operator xarakteristikasining burchak koeffitsiyenti $\gamma=\frac{b}{a}>1$ ko‘rinishda bo‘lib, u xarakteristika ikki karrali bo‘ladi. Quyidagi teorema isbotlangan:

16-teorema. Agar $\varphi_1,\ \varphi_2 \in C^4[0,1]$, $\varphi_4 \in C^3[0,1]$, $\varphi_6 \in C^2[0,1]$, $\psi_1 \in C^4[0,1]$, $\psi_2 \in C^4[-1,-1/2]$, $\psi_3 \in C^3[0,1]$, $\psi_4 \in C^3[-1,0]$, $\psi_5 \in C^2[0,1]$, $\psi_6 \in C^2[-1,0]$ bo‘lib, $\psi_1(0)=\psi_2(0)$, $\varphi_2(0)=\psi_2(-1)$, $\psi_4'(0)=-\psi_3'(0)$ kelishuv shartlari bajarilsa, 3.1 masala $\gamma_1>1$, $\gamma_2>1$ bo‘lganda yagona yechimga ega.

XULOSA

Dissertatsiya ishi to‘rtinchi tartibli o‘zgarmas va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli kichik tartibli hosilalar qatnashgan karrali xarakteristikali bir jinsli bo‘lmagan tenglamalar va to‘rtinchi tartibli parabolo-giperbolik tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar qo‘yish va o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. To‘rtinchi tartibli karrali xarakteristikali o‘zgarmas va o‘zgaruvchan koeffitsiyentli bir jinsli bo‘lmagan tenglamalar uchun yangi chegaraviy masalalarning korrektligi asoslangan.

2. Qo‘yilgan masalalarning bir qiymatli yechilishi uchun koeffitsiyentlarga yetarli shartlarni aniqlangan va bu shartlar buzilganda bir jinsli masalaning notrivial yechimga ega bo‘lishiga misollar ko‘rsatilgan.

3. Chegaraviy masalalarning yechimlari oshkor ko‘rinishda tuzilgan Grin funksiyalari va Furye qatorlari usullari yordamida qurilgan.

4. Ikki perpendikulyar tur o‘zgarish chizig‘iga ega bo‘lgan sohada parabolo-giperbolik tipdagi to‘rtinchi tartibli tenglama uchun birinchi tartibli operatorlari burchak koeffitsiyentlarining qiymatlari asosida chegaraviy masalalarni bir qiymatli yechilishi isbotlangan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ

МАМАЖОНОВ САНЖАРБЕК МИРЗАЕВИЧ

КРАЕВЫЕ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЙ ЧЕТВЕРТОГО ПОРЯДКА С КРАТНЫМИ ХАРАКТЕРИСТИКАМИ И ПАРАБОЛО-ГИПЕРБОЛИЧЕСКОГО ТИПА

01.01.02 – Дифференциальные уравнения и математическая физика

АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2024 г.

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за № B2023.2.PhD/FM865.

Диссертация выполнена в Институте математики им. В.И.Романовского.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу http://kengash.mathinst.uz/ и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz

Научный руководитель:	**Апаков Юсупжон Пулатович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Тахиров Жозил Останович** доктор физико-математических наук, профессор
	Каримов Камолиддин Туйчибоевич кандидат физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	**Ургенчский государственный университет**

Защита диссертации состоится «06» февраля 2024 года в 16:00 часов на заседании Научного совета Dsc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте математики имени В.И.Романовского (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазрский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871)207-91-40, e-mail: kengash@mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 176). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазрский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан «19» января 2024 года.
(протокол рассылки № 2 от «19» января 2024 года).

У.А. Розиков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

Ж.К. Адашев
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

А.А. Азамов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Уравнения в частных производных лежат в основе многих математических и научных достижений. Хотя за последние восемь десятилетий в теории стандартных уравнений в частных производных был достигнут значительный прогресс, анализ некоторых уравнений высокого порядка и смешанного типа все находится в зачаточном состоянии. Можно показать, что многие из этих уравнений, возникающих в прикладных задачах, уже не относятся к стандартным типам, а лежат на границах классификации уравнений в частных производных или выходят за пределы классификации и относятся к смешанному типу.

Эффективное определение типа уравнения и приведение его к каноническому виду позволяет сформулировать правильную постановку и исследование краевых задач. Однако многие вопросы, связанные с постановкой корректных краевых задач для уравнений в частных производных четвертого порядка и построением аналитических методов решения, остались неизученными. В свою очередь, на практике возникает необходимость изучения задач для этих уравнений, а также их возможных комбинаций в различных областях эллиптических, параболических и гиперболических уравнений четвертого порядка, как одной из актуальных проблем современной теории уравнений в частных производных. Эти причины послужили толчком к началу интенсивных исследований в этой области.

В нашей стране особое внимание уделяется развитию фундаментальных и прикладных наук. В настоящее время перед наукой стоит задача сближения фундаментальных исследований с практикой. Особое место в реализации этих задач занимают уравнения четвертого порядка с кратными характеристиками и параболо-гиперболического типа. Поэтому, настоящая диссертационная работа посвящена исследованию вышеуказанной актуальной проблематике. Основной деятельностью и задачами Института математики является проведение научных исследований мирового уровня в приоритетных областях математики, а именно математическом и функциональном анализе, дифференциальных уравнениях и математической физике, включая теорию динамических систем, прикладную математику и математическое моделирование.[1]

Тема и объект исследования настоящей диссертационной работы соответствуют поручениям, обозначенным в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-2789 от 17 февраля 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности», № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О

[1] Постановление Президента Республики Узбекистан, от 09.07.2019 г. № ПП-4387 «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности института Математики имени В.И. Романовского Академии наук Республики Узбекистан».

мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», №ПП-4387 от 9 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института математики имени В.И.Романовского Академии наук Республики Узбекистан», и № УП-4708 от 7 мая 2020 года «О повышении качества обучения в сфере математики и о мерах развития научных исследований», а также в других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследование приоритетным направлениям развития наук и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

Степень изученности проблемы. В 50 - е годы в работах Франкля Ф.И., Бицадзе А.В. и Бабенко К.И. было положено начало современной теории уравнений смешанного и составного типов. В дальнейшем эти краевые задачи изучались многими авторами как в нашей стране, так и за рубежом. Основные результаты этих работ и соответствующая им библиография приведены в работах Бицадзе А.В., Смирнова М.М., Салахитдинова М.С. и Джураева Т.Д. В настоящее время в связи с проблемами геофизики, физики атмосферы, океанологии и ряда других проблем возрос интерес к изучению динамики неоднородных, и, в частности, стратифицированных жидкостей, которые сводятся к решению краевых задач для уравнений в частных производных четвертого порядка (см. напр. моногр. Габова С.А. и Свешникова А.Г., 1986). Монография Джураева Т.Д. и Сопуева А. (Изд. ФАН, 2000) посвящена классификации уравнений в частных производных четвертого порядка и решению некоторых краевых задач для них. Поэтому, естественно, «на повестке дня» встал вопрос о развитии теории уравнений в частных производных четвертого порядка и смешанных уравнений.

